di. Demografik o‘zgarishlar jamiyatning ijtimoiy tuzilmasiga ta’sir etadi, jamiyatdagi iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar esa demografik xulq-atvorni qayta shakllantiradi. Mazkur o‘zaro ta’sir demografik jarayonlarning dialektik xususiyatini ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Demografik jarayonlar jamiyatning biologik davomiyligi bilan bir qatorda, uning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatuvchi murakkab hodisadir. Ularning tarixiy genezisi tabiiy sharoitlar, ishlab chiqarish, tibbiyot, ta’lim, urbanizatsiya va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi munosabatlar orqali shakllangan. Tadqiqot natijasida demografik reproduksiya va ijtimoiy reproduksiya o‘zaro bog‘liq, ammo mazmunan farqli jarayonlar ekanligi asoslandi. Birinchisi avlodlar biologik almashinuvini, ikkinchisi esa bilim, qadriyat va ijtimoiy tajribaning uzatilishini ifodalaydi. Ushbu ikki jarayonning uyg‘unligi jamiyatning barqarorligi va yangilanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Shuningdek, demografik o‘sishning o‘zi ijtimoiy taraqqiyotni kafolatlamasligi aniqlandi. Yoshlar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun sifatli ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, munosib bandlik va samarali institutsional muhit zarur. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

– demografik siyosatni inson kapitalini rivojlantirish va ta’lim siyosati bilan uzviy bog‘lash;

– yoshlarning kasbiy tayyorgarligi va bandligini mehnat bozori ehtiyojlariga muvofiq rivojlantirish;

– yoshlar tadbirkorligi va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi institutsional sharoitlarni takomillashtirish;

– migratsiya va urbanizatsiya oqibatlarini hududiy rivojlanish hamda ijtimoiy infratuzilma bilan bog‘liq holda baholash;

– demografik prognozlarni uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirishda tizimli qo‘llash.

Xulosa qilib aytganda, demografik jarayonlarni faqat aholi sonining o‘zgarishi bilan cheklab tushuntirish yetarli emas. Ularni inson salohiyati, ijtimoiy munosabatlar va institutsional rivojlanish bilan bog‘liq yaxlit jarayon sifatida o‘rganish jamiyat taraqqiyotining ichki mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Malthus T.R. An Essay on the Principle of Population. London, J.Johnson, 1798.

(2). Becker G S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. 3rd ed. Chicago, The University of Chicago Press, 1993.

(3). Notestein F.W. Population: The Long View. Food for the World. Chicago, University of Chicago Press, 1945.

(4). Lee R. The Demographic Transition: Three Centuries of Fundamental Change. Journal of Economic Perspectives. 2003, vol. 17, № 4, p. 167–190.

(5). United Nations. World Population Prospects 2024. New York, United Nations, 2024.

(6). Weeks J.R. Population: An Introduction to Concepts and Issues. 12th ed. Boston, Cengage Learning, 2015.

Avazov Sanjar Ergashovich (Qarshi davlat universiteti “Falsafa va sotsiologiya” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); sanjarbek555@mail.ru)

YOSHLAR BANDLIGI–O‘ZBEKISTON IJTIMOIY SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHI

Annotatsiya. *Maqolada yoshlar bandligi masalasining mazmun-mohiyati, asosiy tendensiyalari tilga olingan hamda mazkur masala sabab va oqibat rakursida tahlil qilingan. Jumladan, bir qancha argumentlar, dalillar va faktlar, izchil mantiqiy asoslar va ilmiy manbalar asosida butun dunyoda bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham yoshlar bandligi – O‘zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida o‘rganib chiqilgan, mazmuni ochib berilgan, ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, bandlik masalasi nafaqat ijtimoiy farovonlik, balki ijtimoiy taraqqiyot masalasi ekanligi maqolada ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *ijtimoiy siyosat, yoshlar, ustuvor yo‘nalish, yoshlar bandligi, kuchli ijtimoiy siyosat, sifatli ta’lim, kasb ta’limi, yoishlarni qo‘llab-quvvatlash, biznesni qo‘llab-quvvatlash, ishsislik, bandlik.*

Авазов Санжар Эргашевич (доцент кафедры философии и социологии Каршинского государственного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам; sanjarbek555@mail.ru)

ЗАНЯТОСТЬ МОЛОДЕЖИ – ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. *В статье рассматриваются сущность и содержание проблемы занятости молодежи, ее основные тенденции, а также проводится анализ данного вопроса с точки зрения причин и последствий. В частности, на основе ряда аргументов, доказательств и фактов, последо-*

вательных логических обоснований и научных источников проблема занятости молодежи, как и во всем мире, исследуется в нашей стране как одно из приоритетных направлений социальной политики Узбекистана. Раскрывается ее содержание и уточняются социально-экономические последствия. Кроме того, в статье рассматривается вопрос о том, что занятость является не только фактором социального благополучия, но и важнейшим условием общественного развития.

Ключевые слова: *социальная политика, молодежь, приоритетное направление, занятость молодежи, сильная социальная политика, качественное образование, профессиональное образование, поддержка молодежи, поддержка предпринимательства, безработица, занятость.*

Avazov Sanjar Ergashovich (Associate Professor, Department of Philosophy and Sociology, Karshi State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy; sanjarbek555@mail.ru)

YOUTH EMPLOYMENT AS A PRIORITY DIRECTION OF UZBEKISTAN'S SOCIAL POLICY

Annotation. *The article examines the essence and content of youth employment, its main trends, and analyzes this issue from the perspective of its causes and consequences. In particular, based on a number of arguments, evidence and facts, consistent logical reasoning, and scientific sources, youth employment, as in other countries around the world, is studied in Uzbekistan as one of the priority areas of the country's social policy. The article reveals the substance of this issue and clarifies its socio-economic consequences. Furthermore, the article considers the fact that employment is not only a matter of social well-being but also an important factor in social development.*

Keywords: *social policy, youth, priority direction, youth employment, strong social policy, quality education, vocational education, youth support, business support, unemployment, employment.*

Kirish. O'zbekiston o'zini ijtimoiy davlat sifatida e'lon qilgan ekan, kuchli ijtimoiy siyosat yo'nalishlari orasiga yoshlar va ularning bandlik masalasi eng utuvor yo'nalish hisoblanadi. Mazkur yo'nalish borasida yoshlarga, avvalo, zaruriy va zamonaviy sifatli ta'lim hamda kasb o'rgatish, yoshlarning qiziqishlari va intilishlarini doimiy qo'llab-quvvatlash e'tiborga olingan. Har bir mahalla-kuyda "Yoshlar bandligi dasturi" hayotga tatbiq etilmoqda, "Besh tashabbus olimpiadasi", "Madaniyat karvoni" kabi tadbirlar va boshqa festivallar amalga oshirilmoqda.

2024 yilning 21-fevralida Prezidentimizning farmoni asosida "O'zbekiston–2030" strategiyasi doirasida "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirish kerak bo'lgan hukumatning maxsus dasturi qabul etildi. Ushbu dasturda yoshlarning muammolarini hal etish va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish, ularni ehtiyoj va talab eng yuqori bzamonaviy kasb-u hunarga tahsil oldirish orqali bandlik masalasini ta'minlash borasida aksar bajarish shart bo'lgan vazifalar aniq belgilangan. "Bu yil (2024-yil nazarda tutilayapti) "yoshlar balansi" bo'yicha 925 ming yigit-qizning bandligini ta'minlash zarur. Shuningdek, kollej, texnikum va oliy o'quv yurtlarini 300 ming yosh bitiradi" [1].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bandlik va ishsizlik masalasining jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyoti doirasidagi roli va o'rni mumtoz ekonomik-olim mutaxassislar K.Makkonell, S.L.Bryu [2], A. Smit [3], P.Samuelson [4], D.Keyns [5] asarlarida keng yoritilgan. Mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan X.Abulqosimov [6], Q.Abdurahmonov, Sh.Xolmo'minov [7], N.Shoyusupova [8] tomonidan ham ushbu muammolar tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda hujjatlarni o'rganish va umumlashtirish, sotsiologik so'rov o'tkazish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholini ish bilan bandligini oshirish orqali aholi turmush darajasini yaxshilashga erishish nechog'li dolzarb vazifa ekanligini hukumatimiz olib borayotgan islohotlardan anlasa bo'ladi. Yangi O'zbekiston davri kechayotgan ushbu davrda demokratik respublikaning eng dolarb funksiyasi ijtimoiy ziddiyatlarning konfliklarni yumshatish, qisqartirish, ushbu davrdagi ayni muqarrar bo'lgan qiyinchiliklarini yechim va ehtiyotkor choralarning hisobida qisqartirish va aholining mazkur yangi turmushning sharoitlariga muvofiqlashishini ta'minlash hisoblanadi. Ijtimoiy siyosatning aholining ish bilan oqilona bandligini ta'minlash va ishsizlikni kamaytirishga yo'naltirilgan tarmog'i bandlik siyosatidir. Ushbu siyosatda, ayniqsa, yoshlar muhim o'rin tutadi. Shu jihatdan, quyidagilarni dolzarb deb hisoblaymiz:

Birinchidan, bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida mamlakatimizning ko'p millionli yoshlar mehnat potensialining oqilona ish bilan bandligini ta'minlash zaruriyati tug'ilmoqda. Shu bois mavjud mehnat potensialidan samarali foydalanish, yoshlarning bandlik bilan bog'liq darajasini yaxshilash muammolarini ham nazariy, ham amaliy tomondan tadqiq qilish va tadqiq etish dolzarb muammo hisoblanadi. Chunki yoshlar mamlakatimizning asosiy strategik bazasi hisoblanadi.

O‘zbekiston ijtimoiy – iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yoshlarning bandlik bilan bog‘liq masalasi alohida ahamiyat kasb qilmoqda. Davlat tomonidan yoshlarning ish bilan bandligi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli va chuqur o‘zgarishlar mazkur muammoning o‘ta dolzarbligidan dalolat bermoqda.

Ikkinchidan, yoshlar bandligi hozirgi vaqtda “jamiyatning eng markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Ishdan bo‘shab qolish deyarli barcha insonlar uchun oilaviy turmush sharoitini yomonlashishini, turmush tarzining notinchligini aks ettirib, kishilarga jiddiy ruhiy ta’sir ko‘rsatadi.

Yoshlar aholining iqtisodiy faol qismi sifatida eng istiqbolli kategoriya, uzoq muddatli intelektual investitsiyalar obyekti hisoblanadi. Ular bilimlarining yuqori darajasi, jo‘shqin mehnat motivatsiyasi, baquvvt jismoniy salohiyati, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb va ixtisosliklarni tez egallash imkoniyatlari bilan ajralib turadilar. “Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasida 30 yosh doirasidagi yoshlarning miqdori 18 milliondan ortiq. Ushbu ulush aholining 55 foiz qismini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasida 18–30 yosh oralig‘ida aholi o‘rtasida rasmiy ishsizlikning ulushi 17 foiz ekanligi aytiladi [10]. Mazkur muamolarni izchil va tizimli bartraf qilish maqsadidan kelib chiqib, Respublikada ishchi guruh joylarga borib o‘g‘il va qizlarning ehtiyoj va takliflarini «mahallabay» tarzda o‘rganishga kirishmoqda. Tahlillar ko‘rsatishicha, yoshlarni o‘qitish va kasb-hunarga yo‘naltirish, ularning bandligini ta‘minlab turish, ularning ehtiyoji uchun kreditlar ajratish, bo‘sh qolgan vaqtlarini sifatli va mazmunli tarzda tashkil ettirish yo‘nalishlarida juda ko‘plab yechish kerak bo‘lgan muammolar mavjud. Mamlakatimizda bir necha bor yillar “Yoshlarni qo‘llash va ularga imkoniyat yaratish” deb e’lon qilingani bejiz emas.

“Turli tuzilmalar mas'ullariga yoshlar bo‘yicha vazifalar taqsimlab berildi:

•hokimning iqtisodiyot, investitsiyalar va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘rinbosarlari – bandlik masalalariga;

•soliq idorasi, savdo-sanoat palatasi va tijorat banklari rahbarlari – yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilishga;

•hokimning yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari–yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga;

•tuman prokurori, ichki ishlar va mudofaa bo‘limi boshliqlari – uyushmagan yoshlar bilan ishlash, jinoyatchilikni jilovlash, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishga mas'ul bo‘ladi” [12].

Shu nuqtayi nazardan, yoshlarning ish bilan bandligi muammosini o‘rganish faqat nazariy jihatdangina emas, balki real ijtimoiy va iqtisodiy amaliyot nuqtai nazaridan ham dolzarb ekanligini tasdiqlaydi. Chunki yoshlar mazkur tadqiqotning predmeti sifatida faqat hozirgi jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi – ish kuchigina emas, shuningdek, mamlakatning kelajagi ham hisoblanadi.

Uchinchidan, yoshlar–mehnat resurslarining yuqori ijtimoiy va mehnat harakatchanligiga ega, mehnat funksiyalarini muntazam o‘zgartirib turishga qodir, innovatsiyalarga tayyor alohida guruhi ekanligi, shubhasizdir. Shu bilan birga, ularga hissiyotlarga berilish, xatti-harakatlarda beqarorlik, ishlab chiqarish va ish tajribasi yetarli emasligi, kasb maqomi pastligi xosdir. Yoshlar istiqbolli ish kuchi hisoblansa ham ular bozorning boshqa raqobatdosh subyektlari bilan raqobatlasha olmaydilar. Mazkur vaziyat yoshlarni mehnat bozori bilan bog‘liq ish bilan ta’minlash borasida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy munosabatlarni qat’iy yo‘lga qo’yishning samaraliroq va zamonavuy yangi metodlari borasida tadqiq olib borishni talab qiladi.

To‘rtinchidan, “O‘zbekiston butun dunyo miqyosi bo‘yicha aholisi eng yosh bo‘lgan davlatlardan biri sanaladi. “2024-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekistonda 5 yoshgacha bo‘lgan go‘daklar soni 4,4 million nafar, 5–13 yoshdagi bolalar 6,1 million nafar, 14–30 yoshlar oralig‘idagi yoshlar soni 9,6 million nafarni tashkil etgan. Mamlakatda 31–59 yoshli o‘rta yoshdagilar eng ko‘p – 13,2 million kishi, 60 va undan katta yoshdagi keksalar soni 3,5 million nafarga yaqinlashgan” [13]. “Bugungi kunda O‘zbekiston aholisi soni 2025-yil 28-avgust holatiga ko‘ra, 38 mln.dan ortiq kishini tashkil etib, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 14–30 yoshdagilar soni 9630556 nafarni tashkil qiladi” [14].

Beshinchidan, ijtimoiy barqarorlikka erishishda aholi bandligi, xususan, yoshlar bandligi katta ahamiyatga ega. Yoshlar bandligi darajasini yanada oshirish orqali jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini kuchaytirishga doir ilmiy asoslangan tavsiyalar va amaliy takliflar ishlab chiqish muhimdir. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligini tartibga solish va takomillashtirish va buning natijasida ijtimoiy barqarorlikni rivojlantirish masalalarini ilmiy va amaliy tadqiq etish zaruriyati ishning alohida dolzarbligini belgilaydi.

Xulosa va takliflar. Ko‘rinib turibdiki, bozor munosabatlariga asoslangan erkin iqtisodiyot sharoitida ishsizlikning mavjud bo‘lishi muqarrar. Shu tufayli davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosati bevosita ishsizlikning oldini olishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, jamiyat sohalarining barqaror taraqqi-

yoti va dinamikasi hukumatning ijtimoiy siyosatning asosiy yo‘nalishlari sifatida aholining bandligi, ayniqsa, yoshlarning bandligi hamda aholi o‘rtasida, bunda ham baayni yoshlar o‘rtasida ishsizlikni kamaytirish ba bandlikni oshirish borasida ishlab chiqilayatgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat va islohotlarning nechog‘liq darajada natijadorligi bilan tavsiflanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ishsizlik bu jamiyatning barqarorligiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi va oqibatlari nafaqat individual, balki ijtimoiy xarakterga xos, shuning uchun ham uning umumjamiyat miqyosida juda keng ko‘rinish hosil qilishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). https://president.uz/oz/lists/view/7049

(2). Макконелл К.Р., Брю С.Л. Экономис. 13-е издание, М., “Инфра”, М, 1999.

(3). Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. М., «Экономика», 1967.

(4). Самуэльсон П. Экономика, М., 1992.

(5). Кейнс Д. Общая теория занятости, процента и денег. М., «Экономика», 1993.

(6). Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётда инсон омили: шаклланиши, амал қилиши ва фаоллашуви. – Тошкент, “Академия”, 2006.

(7). Абдураҳмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси. Ўқув қўлланма, Тошкент, ТДИУ, 2004.

(8). Шоюсупова Н. Меҳнат социологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004.

(9). https://kun.uz/39504315?q=%2F39504315#!

(10). https://scientific-jl.org/tal/article/download/6522/6328/12631

(11). https://uz24.uz/uz/articles/demografiya-5-28

(12). https://kun.uz/news/2025/01/25/ozbekiston-aholisi-soni-38-milliondan-oshdi

Hakimov Akmaljon Mirzag‘aniyevich (Qo‘qon davlat universiteti “Falsafa va dinshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); ORCID 0009-0009-6622-1168; Science ID:FFR-1026-0005)

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA URBANIZATSIYA FENOMENINING ONTOLOGIK VA FUNDAMENTAL ASOSLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida urbanizatsiya fenomenining ontologik asoslari va zamonaviy ijtimoiy jarayonlardagi o‘rni falsafiy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Insonning makon, vaqt, ijtimoiy muhit va axborot bilan munosabatlarini tubdan o‘zgartiruvchi murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda urbanizatsiyaning ontologik mazmuni uning raqamlashtirish, globallashuv va innovatsion rivojlanish jarayonlari bilan o‘zaro aloqadorligi tahlil qilinadi..*

Kalit so‘zlar: *axborotlashgan jamiyat, urbanizatsiya, ontologiya, shahar makoni, raqamli makon, ijtimoiy borliq, globallashuv, raqamlashtirish, innovatsiya, ijtimoiy taraqqiyot.*

Хакимов Акмалжон Мирзаганиевич (Кокандский государственный университет, старший преподаватель кафедры "Философия и религиоведение" (PhD); ORCID 0009-0009-6622-1168; Science ID:FFR-1026-0005)

ОНТОЛОГИЧЕСКИЕ И ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ФЕНОМЕНА УРБАНИЗАЦИИ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. *В данной статье с философской точки зрения анализируются онтологические основы феномена урбанизации в условиях информационного общества и его роль в современных социальных процессах. Интерпретируется как сложное социально-философское явление, коренным образом меняющее отношения человека с пространством, временем, социальной средой и информацией. В исследовании анализируется онтологическое содержание урбанизации во взаимосвязи с процессами цифровизации, глобализации и инновационного развития.*

Ключевые слова*: информационное общество, урбанизация, онтология, городское пространство, цифровое пространство, социальное бытие, глобализация, цифровизация, инновации, социальное развитие.*

Khakimov Akmaljon Mirzaganievich (Kokand State University Senior Lecturer at the Department of Philosophy and Religious Studies (PhD); ORCID 0009-0009-6622-1168; Science ID:FFR-1026-0005)

ONTOLOGICAL AND FUNDAMENTAL FOUNDATIONS OF THE URBANIZATION PHENOMENON IN THE INFORMATION SOCIETY

Annotation. *This article analyzes the ontological foundations of the urbanization phenomenon and its role in modern social processes within the context of an information society from a philosophical*